



Rus punktuatsiyasining xususiy taraqqiyoti va zamonaviy an'analari

To'rayeva Dilbar Meyliyevna,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi
dilbarturayeva270@gmail.com.

N.S.Valgina "Rus punktuatsiyasining dolzarb muammolari" deb nomlangan kitobida o'z mulohazalarini shunday jumlalar bilan xulosalagan edi: "Bugungi kunda tinish belgilari shunchaki "tin olish"ning shartli belgisi yoki o'qishni qulaylashtirish uchun matn qismlarini ajratish vositasi emas, balki matn mazmunini chuqur anglash, gap tarkibidagi so'zlarining tarkibiy strukturaviy bog'lanishlarini qayta taqsimlash va hatto butun bir jumla, bir necha so'zlar orqali yuzaga chiqarish lozim bo'lgan mazmunni ifodalash funksiyasini bajarishga qodir bo'lgan belgilardir".

Zamonaviy rus punktuatsiyasining so'nggi taraqqiyoti bilan bog'liq ayrim jihatlarini ko'rib o'tamiz.

Yozma muloqotda emotikonlardan foydalanishning faollashishi. Virtual muloqot shakllarining ko'payishi tinish belgilari taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, zamonaviy punktuatsion tizimda ko'plab belgilar, hatto so'zlar o'z o'rinni emotikon (smaylik)larga bo'shatib bermoqda. Onlayn muloqot shakllarida piktogrammalardan foydalanish 10-20 foizni (asosiy foydalanuvchisi yoshlar, aksariyati qizlar) tashkil qilmoqda. Emotikonlarning tobora ommalashib ketishining asosiy sababi ularning nafaqat qat'iy va ishonchli emasligi, balki mujmal va noaniqligidir. Devid Kristal emotikonlar butunlay foydalanishdan chiqib ketmasligi, buning sababi ular virtual muloqotda faol bo'lgan qatlam – yoshlar nutqida semantik bo'yoq va his-tuyg'ularni ifodalash uchun zarur vosita ekanini ta'kidlaydi".

Badiiy ijodda tinish belgilaridan butunlay voz kechishining odatga aylanib borayotgani. N.S.Valgina bu holatga e'tiborini qaratar ekan, "bunga ijobiy qarash juda qiyin, ayniqsa, A.P.Chexovning tinish belgilarini matnni tushunish notalariga o'xshatishi haqidagi, K.G.Paustovskiyning "Tinish belgilar matnni ushlab turadi, uning parchalanishiga yo'l qo'ymaydi" kabi fikrini inobatga olsak. Ularning ikkalasi ham rus tilining mashhur stilistlari va bilimdonlari, keng ko'lamli va o'lmas asarlar mualliflari. Ayniqsa, yozma matnda tinish belgilarining ham struktur, ham semantik, ham intonatsion



jihatdan muhim ekanligi qat'iy asoslangan bo‘lsa”, deydi. U o‘z fikrini davom ettirib, badiiy adabiyotda mualliflar ba’zan hech qanday maqsadsiz yoki aksincha, muayyan maqsadda adabiy tilning me’yorlarini buzishi odatga aylanib borayotganini ta’kidlaydi. Albatta, bu holat faqat badiiy adabiyotda uchraydi. N.S.Valgina buning faqat ikki sababi bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi: *birinchisi*, asosiy diqqatini ichki his-tuyg‘ular, ruhiy ta’sirga qaratgan ijodkorlar tinish belgilari haqida o‘ylamaydilar, e’tiborga olmaydilar (shuning uchun ularning qo‘lyozmalarida ham tinish belgilari uchramaydi); *ikkinchisi*, mualliflarning o‘ziga xos xususiyati, badiiy priyomi, individual uslubni yaratish bilan bog‘liq urinishi.

N.S.Valgina A.Pushkin tinish belgilarining roliga jiddiy qaragani, bunga aniq asoslar borligini ta’kidlaydi. Uning «Я помню чудное мгновенье» she’rining tinish belgisiz qo‘llangan qo‘lyozma variantidan parcha keltirar ekan, “Ko‘rinishidan, A.Pushkin uchun bu satrlar qanday chop yetilishi unchalik muhim emas edi. Bu yerdagi belgilari o‘quvchiga, shu jumladan, zamonaviy o‘quvchiga ham ehtiyoj tug‘dirmaydi: satrlar shunchalik musiqiy, tovushlar shunchalik uyg‘unki, ularga hamma narsa o‘z-o‘zidan yetarli, ma’noni anglash uchun qo‘srimcha vositalarga zarurat yo‘qligini aytadi:

Я помню чудное мгновенье

Передо мной явилась ты

Как мимолетное виденье

Как гений чистой красоты

Va ostida mazkur she’rning tinish belgilari bilan chop etilgan variantini keltiradi:

Я помню чудное мгновенье:

Передо мной явилась ты,

Как мимолетное виденье,

Как гений чистой красоты.

Ushbu an’ana, o‘z navbatida o‘zbek adabiyotiga ham kirib keldi. B.Bahriiddinova bu haqda shunday deydi: “Keyingi davr yozuvchilari uslubida jahon adabiyoti ta’sirida tinish belgilaridan butunlay voz kechishni ham maxsus uslubiy qo‘llanish sifatida ko‘rish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasi bilan bog‘liq qator muammolar yuzaga keldi. Devid Kristalning nuqtayi nazaricha, ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasini ikki yo‘nalishda



o‘rganish kerak: birinchisi, minimalizm – barcha tinish belgilarini bir-biriga zich joylashtirib qo‘llash; ikkinchi yo‘nalish, maksimalizatsiya – muayyan tinish belgisidan ketma-ket, bir necha marta qator foydalanish. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda so‘roq belgisining faolligi oshdi. Hatto kommunikantlarning kamdan-kam hollarda uni yolg‘iz holda ishlatishi, asosan, kompleks qo‘llashi «?????????????????????» kuzatilyapti. Insonning hissiyotini, hayratini yozuvda ifodalash istagida qo‘llangan undov belgilarining soni, berilayotgan savolning muhimligi, unga javobni tezroq olish istagi so‘roq belgilarining soni bilan ko‘rsatildi. Masalan, «У меня есть отличная новость!» «Она как-нибудь связана с новым годом?» «Да, и тебя она касается лично». «Рассказывай!» (спустя время) «Что случилось????????????? Как это касается меня???? ?????» Yoki: «Выходи!!!!!!!!!!!!!!! Я тебя уже жду!!!!!!!!!!!!!!»

Ushbu holat o‘zbek badiiy uslubida ham aks eta boshladi. Masalan, “X.Do‘stmuhammad uslubida tinish belgilarining o‘ziga xos tarzda qator ishlatilishi ham muallif individualligini belgilab beradi: – *Qayerdasaannn?????!!!! – deya oh chekadi. Tap topmay takrorlayveradi: – Qayerdasaannn?????!!!!* (“Men – sensiz, Sen – mensiz”)

Ingliz va o‘zbek tillarida bo‘lgani kabi rus tilida ham murakkab qurilishli konstuksiyalarda tinish belgilarining qator qo‘llanishi bilan bog‘liq ko‘plab savollar yuzaga keldi. Masalan,

Quyidagi holatda gap oxirida nuqta qo‘yiladimi, yo‘qmi?: Я читаю роман “Кто виноват?”. Quyidagi holatda ko‘chirma gapni yopuvchi qo‘shtirnoq qo‘llanadimi, yo‘qmi?: Профессор указывает, что “в золотой фонд литературы вошли такие произведения русской классики, как “Евгений Онегин””.

Gapda ichki va tashqi qo‘shtirnoqlar orasida so‘roq yoki undov belgisi qo‘llangan bo‘lsa, bir xil qo‘shtiroqlardan foydalaniladimi yoki ikki xil?:

Quyidagi holatlarda qaysi tinish belgisi tejaladi?: Не только песен нет, куда девался сон; всё подозрительно, и всё его тревожит. / Появились в продаже дачная мебель: столы, стулья, диваны и т.д./ У него было три дочери: Вера, Надежда, Любовь.; Вся эта область – дно моря в прошлом.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, tinish belgilari tadqiqiga bo’lgan yondashuvlar har qancha taraqqiy etmasin, rus tinish belgilari taraqqiyotining yangi bosqichida ham



an'anaviy qarashlar yetakchi bo'lib qolmoqda. Sababi an'anaviy me'yoriy punktuatsiya matnni tushunishni osonlashtirsa, me'yordan tashqari – tartibga bo'ysunmaydigan punktuatsiya hammaning birdek matn mazmunini to'g'ri anglashi va tushunishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois barcha davrlarda tilning me'yorlashtirilgan punktuatsiyasi tilshunoslik bo'limi muammosi doirasida qaraladi. Hozirgi kunga qadar ham rus punktuatsion tizimida tinish belgilarining qo'llanish prinsiplarini belgilashda uch asosiy yo'naliш – sintaktik, mantiqiy, intonatsion prinsiplar ustunligicha qolmoqda. XX asrning oxirlarida ushbu sanalgan an'anaviy yo'naliшlar qatoriga tinish belgilarining kommunikativ – yozma nutqda tinish belgilari orqali axborot uchun muhim zaruriy bo'laklarni – kommunikativ maqsadni oydinlashtirish jihatiga ham diqqat qaratila boshladi. Kommunikativ vazifani ajratish masalasi tinish belgilarining an'anaviy asosiy vazifasi – og'zaki nutqni yozuvda to'g'ri ifodalash uchun xizmat qiladigan alifbodagi harflardan tashqari belgilar tizimi bilan bog'liq bo'lib, u ham o'quvchiga yozuvchi qanday maqsadda qo'llagan bo'lsa, shunday tushunarli bo'lishini taqozo qilardi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Punktuatsiya. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Punktuatsiya>
2. Baxriddinova B.M. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. Monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 64 b.
3. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilida punktuatsiya. – Toshkent: 1955.
4. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1976.
5. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasining dolzarb muammolari. "Ma'rifat", 2014 y., № 94
6. O'zbek tilining punktuatsiya qoidalari "Til va adabiyot ta'limi" Toshkent, 2015 yil, 1-7-sonlar
7. Krýsin L.P. K sootnosheniyu sistemy yazyka, yego normy i uzusa // Kommunikativnye issledovaniya: Nauchnyj журнал. – 2017. – № 2 (12). – S. 20-31.
8. Biyanova M.V. Punktuatsionnye sistemy: sinxronnyu i diaxronnyu aspekty: avtoref. diss. ... kand. filol.nauk. – Ijevsk, 2010. – 24 s. – S 3.
9. Kibrina N.A., Malakovskiy L.V. Angliyskaya punktuatsiya: Uchebnoe posobie. – Moskva: Izdatelstvo literatury na inostrannix yazykax, 1959. – 110 s. – S.10